

## **YANGI KONSTITUTSIYADA FUQAROLARNING HUQUQ VA ERKINLIKLARI, KONSTITUTSIYAVIY BURCH QOIDALARINING QONUNIY JAMLANGANLIGI**

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlari*

*Nuraliyev Husanboy Ulug'bek o'g'li,*

*Mirzayeva Hanifaxon Shuxrat qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi qabul qilinayotgan konstitutsiyaning xalq hayotidagi muhim ahamiyati hamda insonlarning ehtiyojlarini demokratik jamiyat shakllantirishda tutayotgan o'рни va roli shu jumladan vatan oldidagi konstitutsiyaviy burch xususida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar Demokratiya, islohot, qonun, inson qadri, referendum, jamiyat, shaxs.

Bugungi demokratik islohotlar aholining yashash sharoitiga qarab qonunlarning o'zgarishini talab qiladi. O'zbekiston millat manfaatlariga xizmat qilish xalq bilan muloqot hamda insonlarga to'laqonli shart sharoitlar yaratish maqsadida qonunlarni mustahkamlab qo'yayotganini biz konstitutsiyada ham ko'rishimiz mumkin. Konstitutsiyada aholining manfaatlarini inobatga olgan referendum bevosita insonlarni talab taklif hamda ariza shikoyatlarini ko'rib chiqishda dasturiy amal bo'lib xizmat qiladi. Qonun - qoida o'rnatilmas ekan, har qanday davlatda ham tartib-intizomni doimiy ushlab turishning iloji yo'q. Inson huquqlari, ijtimoiy va siyosiy huquqlar inson huquqlarining konstitutsiyaviy asoslari hamda fuqarolarning demokratik jamiyat poydevori ekanligi ham fikrimizning huquqiy asosidir. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalaridagi o'zgarishlar, inson qadrini ulug'lash va aholi farovonligini yanada oshirishga qaratilgan barcha sa'y-harakatlar adolatli jamiyat va ijtimoiy davlat barpo etishga qaratilganidir. Darhaqiqat,

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar zamirida konstitutsiyamiz mustahkam poydevor ekanligini alohida ta'kidlash lozim. Yangi O'zbekiston – yangi islohotlar sharoitida inson huquq va erkinliklarining oliy qadriyat sifatida e'tirof etilishi, davlat organlarining xalq manfaatlariga xizmat qilishi taraqqiyotimizning yuksalish mezonini belgilab beruvchi muhim omildir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hokimiyat bilan shaxsning o'zaro munosabatlarini, davlat organlari tizimining faoliyat yuritishini, fuqarolarning huquqiy maqomini, shuningdek, jamiyatning boshqa ijtimoiy tuzilmalari holatini belgilovchi asosiy qoidalarni mujassam etgan asosiy qonundir. Dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir shaxs, hech bir fuqaro o'z ijtimoiy-shaxsiy hayotini, o'zining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur qila olmaydi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, inson qadri, uning huquqlari ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan biron-bir jinoyatda gumon qilib ushlab, guvohlik qilish kabi huquqlarini ta'minlash mamlakatlarning bosh qonuni – Konstitutsiyalarida aks etganligini ko'rish mumkin. Jumladan, **Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining** 51-moddasida “Hech kim o'ziga, turmush o'rtog'iga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas, ularning doirasi federal qonun bilan belgilanadi”;

**Germaniya Konstitutsiyasining** 47-moddasida “Deputatlar o'zlariga deputatlik vazifasini topshirgan yoki bu maqomda biron-bir faktni ishonib topshirgan shaxslar to'g'risida, shuningdek ushbu faktlarning o'zlari to'g'risida ko'rsatuv berishni rad etishga haqli. Guvohlik berishdan bosh tortish huquqi qay darajada haqiqiy bo'lsa, yozma materialni olib qo'yishga yo'l qo'yilmaydi”; **Yaponiya Konstitutsiyasi** 38-moddasida “Hech kim o'ziga qarshi guvohlik berishga majburlanishi mumkin emas. Tazyiq, qiynoq yoki tahdid ostida, asossiz uzoq muddat hibsga olingan yoki qamoqqa olingandan keyin qilingan iqrorlik dalil sifatida qabul qilinishi mumkin emas. Hech kimning aybiga iqror bo'lishi unga qarshi yagona dalil bo'lgan hollarda ayblanishi yoki jazolanishi mumkin emas” deb belgilangan. Ayni bu masalaga xalqaro huquq normalaridan ham to'xtalib o'tilgan, masalan, BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yurkda 1988 yil 9 dekabrda bo'lib

o'tgan 76-yalpi majlisida tasdiqlangan "Har qanday shaklda ushlangan yoki qamoqqa olingan barcha shaxslarni himoya qilish tamoyillarining to'plami" muvofiq hech kim o'z xoxishiga qarshi guvohlik berishga majbur emasligini belgilash xalqaro umumetirof etilgan huquq normalari o'z aksini topadi. Ushbu hujjatga asosan har qanday shaklda ushlangan yoki qamoqqa olingan shaxsning insoniy qadr-qimmatini hurmat qilish, huquqlarini amalga oshirish kabi prinsiplar belgilangan. Shunday ekan mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashni yangi bosqichga olib chiqish borasidagi izchil islohatlarimizni davom ettirib, bosh qomusimizga "Hech bir shaxs qonunda belgilangan yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas" degan yangi normani singdirish maqsadga muvofiq. Bu bilan, xalqaro huquqning umumetirof etilgan normalarini milliy qonunchiligimizga singdirish bilan bir qatorda, ko'p millatli mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barchaning huquq va erkinliklarini ta'minlashning konstitutsiyaviy kafolatini yana birbor mustahkamlashga erishgan bo'lamiz. Shu o'rinda ona yurtimiz O'zbekistonda ham qonun ustuvorligi va yurt tinchligini taminlash maqsadida mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlab davlat qomusi sifatida konstitutsiyamizni tuzish uni xalq muhokamasiga qo'yishdek murakkab topshiriqni birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning hissasini, izlanishlarini hozirgi davr bilan solishtirsak bir inson uchun hayoti davridagi eng murakkab masala sifatida ko'rishimiz mumkin. Albatta rivojlangan davlatlarning konstitutsion tuzumlari ham keng tahlil qilingan, o'rganilgan va tajribalar o'zlashtirilganligini ko'rishimiz mumkin. Xorij tajribasi milliy qadriyat va an'analar bilan uyg'unlashib konstitutsiyamiz yakdil bir qonun sifatida shakllandi. Buning amaliy natijasi o'laroq 1992-yil 8-dekabrda mustaqil O'zbekistonimiz Konstitutsiyasining qabul qilinishi mahim tarixiy voqea bo'ldi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek Konstitutsiyaning yaratilishi va hayotimizga tatbiq etilishida mustaqil O'zbekistonning birinchi prezidenti muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimovning xizmati beqiyos ekanini davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev alohida ta'kidlab o'tgan. Haqiqatdan ham, 90-yillardagi o'ta og'ir davrda asosiy qonunimiz loyihasini ishlab chiqishda Islom Abdug'aniyevich Karimovdek

keng miqyosda, strategik fikrlaydigan, uzoqni ko'ra oladigan buyuk siyosiy arbobning bu ishga rahbarlik qilgani hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi. Asosiy qonunimizda umume'tirof etilgan demokratik prinsplar bilan birga, xalqimizning bebaho qadriyatlari va boy o'tmishimizning davlatchilik tajribasini ifodalash muhim edi. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlari aynan shu muommoning yechimi sifatida qabul qilishimiz mumkin : “ Xalqimiz manfaati, uning ertangi taqdiriga daxldor bo'lgan har qanday qarorni qabul qilishda yetti o'lchab, bir kesishimiz zarur ”. Yangi asrimiz ko'plab yutuqlar, rivojlanish asri bo'libgina qolmay, avval bizning mentalitetimizga begona bo'lgan urf-odatlarining ko'r-ko'rona kirib kelganligini ham tan olmasdan ilojimiz yo'q. Yangi konstitutsiyada sifatli ta'lim va insonga e'tiborning yuridik asoslari qayd etib kelinayotganligi hamda yishlarning huquqlari konstitutsiya bilan mustahkamlanadi himoyalani moliyalashtiriladi deagn tashkiliy asolar kelajak bunyodkorlariga qratilayotgan e'tibordan darak beradi. Buning uchun esa faqatgina Konstitutsiya bayrami arafasida emas, har doim unga tabiiy ehtiyojni uyg'otish, har xil Konstitutsiyani targ'ib qiliuvchi vedioroliklar va teledasturlarni ko'paytirish, ommaviy axborot vositalarda esa uning qay darajada kundalik xayotimizga ma'lum va noma'lum bo'lgan jihatlarinini ochib beruvchi dasturilamallarni ko'paytirish juda yaxshi samara beradi albatta. Konstitutsiyani darslik sifatida o'rganishda “Xalqchil Konstitutsiya” deb e'tirof berilishining ham aynan milliy ruhni aks ettirganligi va bu ham o'z navbatida jamiyatimizdagi munosabatlarga samarali ta'sir ko'rsatishi haqida o'quvchilarga yetkazish zarur. Mamlakatimizning asosiy qomusida oilaning har bir a'zosiga e'tibor berilgan, ota-ona va farzandlar majburiyatlari aniq qilib belgilab qo'yilgan. 2017-yildan boshlab xalq bilan muloqot tsuhunchasi xalqchil siyosat ham inson manfaatlarini yuksaltirish kerakligidan dalolat beradi.Muhokamada 7yoshdan 70yoshgacha bo'lgan fuqarolar shu jumaladan asosiysi Yuridik universiteti hamda Jamoat xavfsizligi universiteti bunga o'z hissasini qo'shayotganligi demokratik jarayonlarga hech kim befarq emasligini anglatadi. Insonlarning manfaati inobatga olinishi uchun tashkil etilayotgan muhokamalar hamda referendumlar albatta yangi konstitutsiyada

fuqarolarning erkinliklari hamda qonunini jamlaydi Inson huquqlari deklaratsiyasidagi tushunchalar ijtimoiy siyosiy huquqlarini inson huquqlarining konstitutsiyaviy faoliyatini qonun hamda qonunosti hujjatlari bilan mustahkamlaydi. Biz ham ushbu demokratik jarayonlarga o'z hissamizni qo'shgan holda ofitser sifatida ijtimoiy va siyosiy qolaversa fuqarolik huquqlarini mustahkamlashda o'z hissamizni qo'shamiz Zero kuchli fuqarolik davlatdan fuqarolik jamiyatga o'tishda o'z hissamizni qo'shish bizning eng asosiy burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent.: 2019 yil.
2. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik Toshkent 2013.
3. Наше Общее – М.:, Прогресс, 1989.